

Ona yurtning - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
REPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 21-27 - noyabr N:47 (66536)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

NURXON NAFASOV:

KARATE - BUYUK SAN'AT

Aziz bolajonlar, avval xabar qilganimizdek, «Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotiga O'zbekiston Karate Milliy Federatsiyasi prezidenti, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustoz», O'rta Osiyoda yagona 6-DAN qora belbog' sohibi Nurxon aka Nafasov mehmon bo'lib keldilar. Bu inson bilan uchrashishni xohlovchilar ko'pligidan mashg'ulot o'tadigan xonamiz torlik qilib, kattagina majlislar zalini band qilishimizga to'g'ri keldi. Nafaqat o'quvchilarimiz, balki ko'plab hamkasblarimiz ham mehmonimizni bolaligi, oppoq, beg'ubor orzulari, ustozlari, federatsiya faoliyatiga oid savollarga «ko'mib» tashlashdi.

- Men balandparvoz, chiroyli gaplarni bilmayman. Savollaringizga lo'nda va qisqa qilib javob bersam maylimi? Buning uchun sizlardan uzr so'rayman, - so'z boshladi Nurxon aka. - O'yinqaroq bolalik damlarim Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida o'tgan. Sho'x bo'lsamda, maktabda faqat a'loga o'qirdim. Baholarim orasiga «4» oralab qolsa bormi, 2-3 kunlab motam tutib yurardim...

O'sha damlar bilan bugungi kunlarimizni ko'p solishtiraman, orasida osmon bilan yercha farq bor. Yodimda bor, keng yalanglikda ikkita toshni darvoza qilib, futbol o'ynab yurardik. Hozirgidek sportsevar bolalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar qayda deysiz? 10-15 yillab sport

bilan shug'ullansakda, xalqaro musobaqalarda qatnashishni hatto orzu ham qilolmasdik. Yoshligimdan sportning erkin kurash, voleybol, basketbol, dzyudo kabi turlari bilan shug'ullanganman. Yurtimizda sportning karate turi bilan shug'ullanishga ruhsat etilgandan so'nggina u bilan jiddiy shug'ullana boshladim. Bu borada nimagaki erishgan bo'lsam, buning uchun ustozlarim Eduard Pak hamda Bahodir Maqsudovdan behad minnatdorman. Bugun ham birortangizdan federatsiyamizning ravnaqi uchun xizmat qiladigan biror fikr eshitadigan bo'lsam, sizni ham o'zimga ustoz deb bilaveraman.

Mana shunday uchrashuvlarda menga ko'pincha, yurtimizda karatening ommalashib ketishiga sabab nima, degan savol bilan murojaat qilishadi. Menimcha, karate shunchaki bir sport turi emas, u haqiqiy san'atdir. Bo'lganda ham juda nafis va jozibador san'at turi. Karatening falsafasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda hujumkorlik alomatlarini ko'rmaymiz. Karate bor-yo'g'i himoya vositasi, xolos. Uning ommalashib ketishi sababi ham shunda deb o'ylayman. Ko'pchilik ota-onalarimiz yosh-yosh o'g'il-qizlarini yonimga yetaklab kelishadi-da, farzandimga o'zingiz ustozlik qilsangiz, uni tezroq chempion qilib bersangiz, deya iltimos qilishadi. Qani endi imkonim bo'lsa-yu, ularning bariga ustozlik qilsam. Lekin mening imkoniyatlarim ham chegaralangan-da. Chempionlik borasida ham ular juda shoshma-shosharlik qilishadi. Karate bo'yicha mamlakat chempioni bo'lish uchun kamida 10 yil, jahon chempioni bo'lish uchun esa kam deganda 25 yil sportning bu turi bilan jiddiy shug'ullanish zarurligini bilishmaydi-da ular. Yosh masalasiga kelsak, karate bilan shug'ullanishni qancha barvaqt boshlasalar, shuncha yaxshi bo'ladi.

Ayrim shifokorlarimiz, ota-onalarimiz bu sport turi bolaning salomatligiga, rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi, ularni mayib qilib qo'yishi ham hech gapmas, deb hisoblashadi. Men bu fikrlarga mutlaqo qarshiman. Karatening inson salomatligini mustahkamlashdagi roli boshqa sport turlaridan ortiq bo'lsa ortiqdir, lekin kam emas. Qizlarining karate bilan shug'ullanishiga to'sqinlik qiladigan ota-onalarga ham aytar gapim shu: bu nafis san'at turi bilan shug'ullangan qizingizning birinchi navbatda sog'ligi mustahkamlansa, ikkinchidan o'z-o'zini himoya qilishni o'rganadi. Ularga qarata, bu axir bir-birining qulog'ini uzib olish darajasigacha boradigan kurash yoki qomatlarini

beso'naqay qilib yuboradigan tosh ko'tarish sport turimasiku, degim keladi.

Yaqinda yurtimizda 1989 - yilda asos solingan sportning bu turi tarixiga oid «Karatening qiyin yo'li» nomli kitobcham bosmadan chiqdi. Undan sportga tetapoya qilib kirib kelayotgan yosh sportchilarimiz o'zlari uchun biror narsa ololsalar, behad mamnun bo'larдим. Bugun ana shu kitobchamdan bir nechtasini - Siz yosh qalamkashlarga sovg'a tariqasida olib keldim. Uni albatta o'qib chiqasizlar, degan umiddaman...

Nurxon akaning qiziqarli hikoyasini, gazetaning ko'p sonli muxlislariga bildirgan ezgutilaklarini nafaqat bolalar, balki biz kattalar ham zo'r qiziqish bilan tingladik. Ayniqsa, federatsiya hisobidan 100 nafar o'quvchini «Tong yulduzi»ga obuna qilish uchun bergan va'dalari hamma-mizni to'lqinlantirib yubordi. Sport



bolalarni jisman sog'lom, barkamol qilib tarbiyalasa, gazetamiz ularni ma'naviy kamolot sari yetaklashini Nurxon aka ham juda yaxshi bilarkanlar-da.

Feruza JALILOVA
yozib oldi.



Suratlar muallifi Vitaliy MYASNIKOV.

JORJ BUSHDAN TABRIK OLGAN BOLAKAY

Istiqlol tufayli dunyoni keng ma'noda anglay boshladik. Bugungi kunda dunyo biz qanday buyuk allomalar yetishib chiqqan yurt farzandlari ekanligimizni tan olmoqda. Iqtidori va mahorati bilan yurtimiz dovrug'ini jahonga taratayotgan yoshlarimiz anchagina.

Endigina 12 yoshini qarshilagan tengdoshingiz - Miraziz Yusupov ham ana shunday o'g'il-qizlardan biri. U yaqinda «Yilning eng o'quvchisi» degan tahsinga Yana qayerda deng, Amerikada!

Dastlab Toshkentda, tahsil olgan Miraziz, a'lo tengdoshlariga namuna Amerikada o'qishini fursat ichida o'z tengdoshlarini ham qoyil Jorj Bushning o'zi unga katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Miraziz shaxmat o'yiniga ham juda qiziqadi. O'tgan yili mustaqillik bayrami arafasida Bo'stonliqda o'tkazilgan an'anaviy shaxmat turnirida ishtirok etib, professor Ozod Sharofiddinovdek inson bilan dona surishgan va u kishining tahsiniga sazovor bo'lgandi.

Bo'ladigan bola boshidan ma'lum, deganlari shu bo'lsa kerak...
Gulchehra SA'DULLAYEVA.



«DO'STLIK»DA «MEHRJON» BAYRAMI

O'lkamizda oltin sepini yoyib kuz fasli kezib yuribdi. Kuzning so'nggi oyida «Mehrjon» bayramini o'tkazish an'anaga aylanib qolgan. Ana shunday bayramlardan biri poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 110-maktabgacha ta'lim muassasasida ham bo'lib o'tdi.

*- Har faslning o'z xislati bor,
Har faslning o'z fazilati.*

Kumush qishdan, zumrad bahordan,

Qolishmaydi kuzning ziynati, - deb boshlangan bu tadbirda bolajonlar bor mahoratlarini ishga solib, o'zlari yod olgan she'r va ashulalarini ijro etib, ota-onalar ko'nglini ko'tarishdi. Tadbirga yig'ilganlar qiziqarli o'yinlar-u, kichik sahna ko'rinishlarini tomosha qilib, kichikintoylarni olqishlab turishdi.

- Bu bolalarni ko'rib, o'zimning bolalik paytlarim esimga tushib ketadi, - deydilar bog'cha mudirasi Malika opa Qurbonova. - Ularning har bir harakatlari, hatto yig'lashlari ham kishini bolalik vaqtini yodiga

solishi aniq. Bola bilan ishlash uchun o'zingiz ham bola bo'lishingiz kerak. Qaniydi, yillar ortga qaytganda...

Ha, bolalar chindan ham bu tadbirga juda yaxshi tayyorlanishgan ekan. Ayniqsa, har bir meva-yu sabzavotlarning so'zga chiqishini, paxtazordagi dehqon boboning zahmat chekib paxta yetishtirishini qoyilmaqom qilib ijro etgan bu kichikintoylarga hamma havas qilsa arziydi. Tadbir so'nggida ota-onalar so'zga chiqib, bu bayramni

uyushtirgan tarbiyachi opalar-u musiqa o'qituvchisi Nilufar opaga minnatdorchilik bildirishdi. Haqiqatan ham ana shunday jonkuyar opalar-u tarbiyachilar bor ekan, bolalarimizdan doimo ko'nglimiz to'q, xotirjam yuramiz. Bola tarbiyasiga astoydil bel bog'lagan va buni uddalayotgan 110-bog'cha xodimlarining barchasi har doim bunday mas'uliyatli ishlaridan aslo tolishmasin. Ularga sog'lik va omonlik tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA.



BU KITOBNI O'QIMANGIZMI?

Qadri do'stlarim, siz Anvar Obidjonning «Dahshatli Meshpolvon» ertagini o'qib chiqqanmisiz?... «Ikki lunji nog'ora, yuzi oftobdan zog'ora, jag'ida eshak tepkisi naqshlagan chandiq, qorni naqd qirq pudli sandiq, burni mushuknikidek puchuq, bo'yni oldinga enkaygan, quloqlari dikkaygan, oyoq bosishi ilang-bilang, boshi o'zyovon cho'ldek yap-yalang, kamgap-u anqov, mahmadona-yu boyqushnikidek rosayam qiziq tanishib, uning qulog'i eshitmagan sherik bo'lasiz. Meshpolvonning sarzugashtlariga shunaqangi berilib ketibmanki, hatto uning sherigiga ham aylanib qolganimni sezmay qolibman. Biz Meshpolvon ikkimiz Sahroi-Kabirga yetib keldik. U yerdan o'tib, Go'ro'g'lining chevarasi Oshiqbolaga duch kelsak bo'ladimi... Uning ham biz bilan yo'li bir ekan. Do'stimiz Oshiqbolaning yoqtirgan qizi Oytumorni Sepkilshohning askarlari cho'ri qilib olib ketishgan ekan. Yo'lda biz Rayhon qiziq, Chumakvoy degan do'stlar ham orttirdik. Yo'l-yo'lakay Meshpolvon nahang o'lponchini Chika va Puka ilonlariga chaqirib, ayg'oqchi pistak kampirning nayranglariga uchmay, yana qancha sarzugashtlarni boshimizdan kechirib, Sepkilshoh qasriga yetib keldik. Unga qarshi kurashda hatto vatandoshlarimiz ham qatnashishdi. Ularning ba'zilari tesha, bolta bilan qurollanib, Sepkilshohga qarshi jang qilishdi. Xullas, u bilan birga sarzugashtlarimiz juda ham ko'p. Agar bu kitobni o'qimagan bo'lsangiz, tezda olib o'qing. Shundagina Meshpolvon bilan bo'lgan sarzugashtlarni hammasini bilib olasiz.

Shahribonu SULTONOVA, Toshkent shahridagi 235-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi.

YURTIMDA KUZAK



Kuzak shamollari esganda mayin,
Daraxt yaprog'ini to'kadi sekin.
Deraza chertadi, shitirlab yomg'ir,
Yakun yasalmoqda bir yilga, axir.
Tabiat mudraydi har bir go'shada,
Umr o'tkinchidir, qismat bevafo.
Safoli bahor-ku qaytar gulshanga
Lekin qarigaydur bir yilga Dunyo.
Shuning chun bu damni biling g'animat,
Oqarsuv ne o'zi taqdir oldida.
O'tgan bir daqiqa oltindan qimmat,
Hayot sinovlari kutar oldinda...
Kuzning xazonlari eslatar vaqtini...

HAR INSONNING YURTI BO'LSIN

Har insonning yurti bo'lsin yo'g'u bori,
Vatan deya o'psin qarich tuprog'ini.
Xalqi bilan birga bo'lsin nomus ori,
O'chirmasin ota makon chirog'ini.
Har insonning iymoni but, sobit bo'lsin,
E'tiqodi qat'iy bo'lsin millatiga.
Ona zamin mehri unga sovut bo'lsin,
Tiz cho'kmasin razillarning illatiga.
Vatan agar da'vat qilsa, labbay, desin,
Desin, jismim o'zgalardan hech kam emas.
Agar kimki el koridan qochar bo'lsa,
Kim bo'lmasin, ne demasin, ODAM emas!

Maftuna ESANOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi
301-maktabning 11-sinf o'quvchisi.

KIMYO FANI - JONU DILIM

Maktabda turli fanlar bilan bir qatorda kimyo fani ham o'qitilardi. Ko'pchilik fanga qiziqmas, nomigagina formulalarni yodlab, ustozimizga aytib berardim. kollejiga kirgach, bu fanning nechog'li tibbiyot sohasida kerakli ekanligini Bu fandan bizga Abdurahim aka Jalilov saboq berayaptilar. Maktabdagidek kimyo fanini faqat nazariyotda emas, balki amaliyotda ham o'rganayapmiz. Laboratoriyamiz Koreya granti va «El» firmasi tomonidan hamma jihozlar bilan ta'minlangan bo'lib, bu yerda turli kimyoviy reaksiyalarni amalga oshiramiz. Kelajakda kimyo fani bizga juda ham asqotarkan. Maslahatim, hamma fanlarni yaxshilab o'zlashtiring. Keyin pushaymon bo'lmaysiz.

o'quvchilar qatori men ham bu Ammo bu yil Tibbiyot tushundim.



Dilafroz YUSUPOVA,
Toshkent shahar, Y.Oxunboboyev nomidagi
Respublika Tibbiyot kollejining 1-kurs, 204 - guruh talabasi.

TOSKENTGA SAYOHAT

Mening buvim va buvam Toshkentdagi G'uncha kinoteatrining ro'parasidagi ko'p qavatli uylarning birida yashaydilar. Men ularnikiga mehmonga borishni juda yaxshi ko'raman. Ular Andijondan ro'za ramazon oyini o'tkazish uchun kelganlarida meni va singlim, Nozimani ham poytaxtga olib kelishdi. Mashinada dovon orqali o'tib, keng dala-yu bog'larni, oltindek tovlanib turgan o'rikzorlar, tog' yon bag'ridagi yam-yashil archazorlarni ortda qoldirib, Toshkentga olti soatda yetib keldik. Ertasi kuni biz buvam, buvim va kelinoyimni olib, mashinada shahar aylangani chiqdik. Ular bilan O'zbekiston tarixi muzeyini, Amir Temur muzeyini, Yoshlar ijodiy uyini tomosha qildik. Keyin kelinoyim bizlarni istirohat bog'lariga olib bordilar. Kech kirgach bu yerda mazza ekan. Biz shaxmat-shashka, kompyuter o'yinlarini o'ynab, kitoblar o'qib, vaqt allamahol bo'lganini ham sezmay qolibmiz. Xullas, ta'til kunlarida Toshkentga bo'lgan sayohatimiz mazmunli bo'ldi. Endi belni mahkam bog'lab, maktab sari yo'l olamiz.

Bedilbek HAMIDOV,
Andijon shahar, 31-umumta'lim
maktabining 3-«1» sinf o'quvchisi.

Har yili obuna mavsumida biz jurnalistlarning ishlarimiz ko'paygandan ko'payadi. Maktab va turli o'quv muassasalarida ijodiy uchrashuvlar, xizmat safarlari degandek...

Navbatdagi xizmat safarim vodiya bo'lishini eshitib, to'g'risi juda quvonib ketdim. Chunki bu yurtning sodda, samimiy, bag'rikeng va dilkash odamlari bilan diydorlashishni, hamsuhbat bo'lishni kim ham xohlamaydi deysiz?..

Qolaversa, tahririyatimizga keladigan maktublarning aksariyati vodiylilik o'quvchilar, o'qituvchilar hisobiga to'g'ri keladi. Demak, bu go'shalarda gazetamiz muxlislari ham talaygina. Shunday ekan, ular bilan uchrashib, dildan suhbat qurishga, gazetamiz haqidagi fikr va mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini o'z og'izlaridan eshitishga ne yetsin!?

Shunday o'y-xayollar bilan Andijon viloyatiga yetib kelganimizni ham sezmay qolibman. Maqsadimni anglagach, viloyat Xalq ta'limi bosh boshqarmasi bo'limining xodimi Anvar aka jonov meni ana shunday insonlar davrasiga chorladilar:

«BOBOLARIM KULOL O'TMAGAN»



ishladim. Sog'lig'im yomonlashib, uyda o'tirib qoldim. Oilamizda iqtisodiy tanglik boshlandi. Uni bu ahvoldan chiqarish uchun nima qilish kerak, degan savol ko'ndalang turardi oldimda. Kulolchilik qilsammikin deb

Bolajonlar, siz ko'plab doston va ertaklar o'qigansiz. Qadimda hatto shahzoda va malikalarga ham hunar o'rgatishgani haqida eshitgansiz. Shunda, shuncha boyligi bo'la turib, ularga hunarning nima keragi bor ekan, degan savol o'tgandir xayolingizdan. Aslida dunyoga kelgan har bir inson biror hunar o'rganishi farz ekan. Hunarning yaxshi yoki yomoni bo'lmaydi. Hunarli xor bo'lmas, deb xalqimiz bejiz aytmagan-ku, axir. Agar bu fikrlarimizga shubha qilsangiz, keling, rishtonlik kulol Shuhrat aka Ahmedovning gaplariga birgalikda quloq tutaylik:

-Bolaligimda juda sho'x, o'yinqaroq bo'lganman. Ota-onamning tanbehlariga parvo qilmay, ko'chadan beri kelmasdim. O'qituvchilarimizning, Rishtonimiz X asrlik kulolchilik tarixiga ega, mashhur ustalarimizdan bu hunarni vaqtida o'rganib olinglar, degan nasihatlar ham kor qilmagandi o'shanda...

Oradan yillar o'tdi. Oilali, farzandli bo'ldim. 10 yildan ortiq iqtisodchi bo'lib

o'yladim: Bobolarim kulol o'tmagani uchun avvaliga bu hunar bilan shug'ullanishga yuragim dov bermadi. Lekin tavakkal qilishdan o'zga choram yo'q edi. Rishtonimizning ko'zga ko'ringan ustalariga havas qilib, bu ishni boshladim. Kulolchilikka oid kitoblar bilan tanishib chiqdim. O'g'illarim Ravshanjon, Dilshodjon va Dilmurodjonlarni ham yonimga oldim.

Buyumlarimizning bozori chaqqonligidan quvonib, ruhlaniib astoydil mehnat qila boshladik. Buyumlarimizga hatto xorijliklar ham xaridor bo'lishayotganini ko'rib, sifati va bezagi ustida jiddiy izlana boshladik. Ayniqsa, ko'k bo'yoq bilan jilo bergan buyumlarimiz ko'pchilikka manzur bo'layotgandi. Ravshanjon naqshlar bilan, Dilshodjon bo'yoqlar bilan, Dilmurodjon esa naqshdagi nuqtalar bilan ishlashning hadisini olishdi. Keyinchalik mahallamiz bolalari orasida ham bu hunarni o'rganishga ishtiyoqmandlar ko'payib qoldi. Bo'sh

vaqtlarini bekor o'tkazmay ustaxonamizga kelib, bizga yordam bera boshladilar.

Bolaligimda o'zim o'rgana olmagan hunarni farzandlarim o'rganib olishganidan xursandman. Ular hozir turunj, jingalak, shona, ruta va axta kabi naqsh turlarini bemaol o'zlashtirib olganlar. Naqshlarning mazmunini ham juda yaxshi bilib olishgan. O'simliksimon, geometrik, ramziy ma'nolarga ega usullar bobida ham mahoratlari oshib qoldi.

-Farzandlarimni yonimga oldim dedingiz. Ularning bilim olishlariga ta'siri bo'lmayaptimi? - so'rayman Shuhrat akadan.

-Hunar o'rganish o'z yo'liga. Lekin men uchun ularning bilimli bo'lishlari muhimroq. Farzandlarim maktabda a'lo baholarga

o'qishadi. Darsdan bo'sh vaqtlaridagina menga ko'maklashishadi. Ziyoli inson

bo'lganim uchunmi, gazeta va jurnallar o'qishga qiziqaman. O'g'illarim ham «Tong yulduzi» gazetasini o'qib ulg'ayishyapti. Ularni 2006- yil uchun ham mana shu gazetaga obuna qildim. Ishdan biroz toliqqan paytlarimizda katta o'g'lim gazetadagi qiziqarli maqola va hikoyalarni o'qib beradi. Kichiklari esa o'z munosabatlarini bildirishadi...

Aziz bolajonlarim, Sizlarga ham maslahatim shu - bolalikning har bir daqiqasini g'animat bilib, biror bir hunarning boshidan tuting. O'rganganlaringiz, hayotingizda albatta asqotishiga men kafil.

Muxbir safardan qaytdi

Navbatdagi suhbatdoshimiz «Usta-shogird» to'garagining rahbari Alisher aka bo'ldilar. Ular bizni «Noriko Xonim Maktabi» deb nomlanuvchi markaz sari boshladilar.

Rishtonliklar bu maktabni «Yapon maktabi» ham deb atashadi. Yaponiyalik ziyoli ayol Noriko xonim nomi bilan ataluvchi bu maktabni uning umr yo'ldoshi Osaki janoblari tashkillashtirgan ekan.

Rishtonda yapon maktabi qanday tashkil etildi, degan savol sizni ham qiziqtirsa kerak-a?

1994 - yili rishtonlik kulollar sulolasining vakili G'anisher, Alisher, Baxtiyor akalar poytaxtning amaliy san'at muzeyida o'tkazilgan rishtonlik kulollarining an'anaviy ko'rgazmasiga keladilar. Ko'rgazmada Yaponiya elchixonasi vakili ularning ishlariga qiziqib qolib, aka-ukalardan birini kunchiqar mamlakat - Yaponiyaga taklif qiladi. Elchixonona vakilining taklifiga ko'ra sayohatga borgan Alisher aka, Yaponiyada til o'rgandi, ko'plab do'stlar orttiradi. Ulardan eng yaqini Osaki janoblari edi. Yurtiga qaytayotib, do'stlarini O'zbekistonga taklif qiladi. Oradan to'rt

yil o'tib, do'sti Osaki xizmat yuzasidan yurtimizga keladi.. O'zbekona udumlarni, qadriyatlarini o'rganadi.

«Menga yurtingiz juda yoqdi. Farzandlaringizning odob-ahloqiga havas qilyapman. Ularning mehnatsevarligi, tirishqoqligi menga yapon bolalarini eslatyapti.

Rishtonda

**NORIKO XONIM
MAKTABI**

yapon tilini o'rgatuvchi bir markaz tashkil qilsak, nima deysiz?..» deb qoldi bir kuni Alisher akaga.

1999 - yili Osaki Shigeo janoblarning taklifi bilan Noriko xonim to'garagi - tashkil topdi. Ushbu markazga 180 nafar o'quvchi a'zo bo'lib, ular tez orada yapon tilini o'rganib oldilar. Hozirda maktabning 10 nafar o'quvchisi Yaponiyaning turli oliyog'larida tahsil olmoqdalar.

Maktablarni, o'quv muassasalarini aylanib yurib, Andijon viloyati, Paxtaobod tumanidagi 31- maktab internatida ta'lim olayotgan 6 yoshli Sherzodbek Madaminov bilan tanishib goldim. Yosh bo'lsa-da, u ham gazetamiz muxlisi ekan. Unda chop etilayotgan ertaklarni xijjalab bo'lsa ham o'qib chiqarkan. O'zi ham ertaklar to'g'rikan. Sherzodbekning menga so'zlab bergan yangi ertagini yozib olgandim, uni siz ham o'qib ko'ring-a:

SHERZODBEKNING ERTAKI

-Buvijonim meni va 3 yoshli ukam Madorbekni bu yerga tashlab ketganlariga bugun yetti kun bo'ldi. Biz buvijonimizdan xafa emasmiz. Chunki ular ham qarib qolganlar. Bizni boqishga madorlari yo'q. Dadam Rossiya degan joyga, ayam esa Toshkentga ketib qolgan ekanlar.. Shuncha vaqt buvim bizni tarbiyaladilar. Biz dadam va ayamni rosa sog'inganmiz...

- Bu joyni bolalar uyi deyishyapti. Bizga o'xshagan bolalar juda-a ko'p ekan. Men rasm chizishni o'rganib oldim. Bugun dadam, oyim, ukam va o'zimni birgalikda dasturxon atrofida o'tiranimimzni rasmini chizdim. Ana, Madorbek ovqatini to'kib eyapti, oyijonim unga dakki beryaptilar... Bunaqa rasmlarim hozirgacha 5 ta bo'ldi.

Kecha internatimizga Toshkentdan jurnalistlar kelishdi. Ularga, mening oyimni aytib yuboringlar, - deb tayinladim. Biz ularni rosa sog'inganimizni ham aytib qo'ydinglar, dedim. Madorbek ko'p shamollayapti. Kecha yaxshi uxlovmagani uchun mening ham uyqum kelmadi.

Sherzodbek bilan xayrlashib uyga qaytarkanman, bolalar uyining sovuq yotoqxonasida junjilib yotgan, ko'zlari yoshga to'lgan, bu ikki bolakayning qiyofasi kun bo'yi ko'z o'ngimdan ketmadi. Sherzodbek va Madorbekning ota-onasiga Allohdan insof tiladim.

Darvoqe, markazni tashkil qilishning ham o'zi bo'lmadi. G'anisher aka ko'plab mahalliy idoralarga yugurdilar. Natijasi bo'lmagach, o'z tomorqalaridan yer ajratishga majbur bo'ldilar. Chunki kelajak avlod uchun qayg'urmog'dek savobli ishga qo'l urgandilar-da. Ularning sa'y-harakatlari bilan bugungi kunda Rishtonning Xo'ja Ilg'or mahallasi bolalari Yaponiyadan keltirilgan darsliklar, ko'rgazmali qurollar asosida yaponiyalik mutaxassislardan saboq olishyapti. Har yili poytaxtda o'tadigan bolalar va o'smirlarning notiqlik san'ati tanlovida qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritib qaytishyapti.

Bir so'z bilan aytganda, Alisher akaning ishonchini oqlashyapti...

-Yaqinda Rishtonda Yaponiya granti asosida yangi mahalla yoshlar markazi qurilib, foydalanishga topshirildi,-dedilar mamnuniyat bilan Alisher aka. - Shundoqqina yo'l yoqasiga chiroy berib, qad rostlagan markazimiz eng zamonaviy anjomlar bilan jihozlangan. Bu maskanda hozirda 200 nafar rishtonlik bolalar tahsil olmoqdalar. Tikuvchilik, hunarmandchilik, ingliz tili va gilamdo'zlik to'garaklarini ten-

der asosida tanlab olingan tajribali mohir ustozlar boshqarmoqdalar. Markazimizda tahsil olayotgan yoshlarimiz kelajagidan umidimiz katta.



Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi.

RESPUBLIKA MAKTAB SIRTQI OLIMPIADASIGA MARHAMAT!

Aziz o'quvchilar!
Gazetamiz sahifalarida sizlar uchun yangi tanlov - sirtqi olimpiada boshlanmoqda. Ma'lumimgizkim, gazetamiz sahifalari orqali o'tkazilgan "Iqtisodiyot saboqlari" sirtqi tanlovining 2004-2005 - yilgi bosqichi muvaffaqiyatli yakunlandi va g'oliblar Toshkent shahriga chaqirilib taqdirlandilar. Endi biz tanlovda qatnashuvchilar sonini va davramizni kengaytirish maqsadida, shuningdek qiziquvchilarimiz iltimoslarini inobatga olib, nafaqat iqtisodiyot, balki matematika, fizika va kimyo fanlaridan ham tanlovimizni o'tkazishga qaror qildik. Bu yangi fanlarning qo'shilishi bilan o'z-o'zidan tanlov maqomi o'zgardi va **SIRTQI OLIMPIADAGA** aylandi. Sirtqi olimpiada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, O'zbekiston Davlat teleradiokompaniyasi va "DOSNET" o'quv markazi bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Sirtqi olimpiada to'rt bosqichlidir. Ikki oy davomida I-bosqichga yo'llagan javoblaringizni kutamiz. So'ng keyingi bosqich savollarini e'lon qilamiz. **G'oliblari quyidagi sovg'alar kutaymiz:**
1 - o'ringa DVD pleyeri;
2 - o'ringa VCD pleyeri.
Shuningdek, bilimdonlarga 10 ta rag'batlantiruvchi mukofot, 20 dan ortiq sovg'alar bor. G'oliblar, tashkilotchilarimiz «Kamolot» Yo'II, Xalq ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazining «Faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadilar. Tanlov homiysi «DOSNET» internet markazi, rahbari Sherzod Sodiqov. Javoblaringizni ushbu gazeta sahifalariga aniq va lo'nda qilib yozib yuboring. Faqat gazeta sahifalarida javoblargina qabul qilinadi. Aygandek, gazetaning keyingi sonlari uchun obuna hamon davom etmoqda. Shuni unutmangki, «Tong yulduzi» aloqa bo'limlariga qaraganda ikki barobar kam narhda o'qib olinadi.

FIZIKA fanidan

8-9-sinf I - bosqish

1. Tosh $u_0=20$ m/s boshlang'ish tezlik bilan yuqoriga tik otilgan. $t=1$ s dan keyin shunday boshlang'ish tezlik bilan boshqa tosh ham yuqoriga tik otilgan. Toshlar qanday h balandlikda to'qnashadi?

2. $m=1$ kg massani moddiy nuqta tekis harakatlanib, $t=2$ s vaqt davomida $r=1,2$ m bo'lgan chorak aylana chizadi. Nuqta impulsining o'zgarishini

toping?

3. Havo oqimining kesimi $s=0,55$ m², tezligi $u=20$ m/s bo'lsa, normal sharoitda uning quvvati N qanday bo'ladi?

4. $j=20$ V potentsialgacha zaryadlangan 100 ta bir xil simob tomchilari qo'shib, bitta katta tomchi hosil qildi. Hosil bo'lgan tomchining potentsiali j ni aniqlang?

5. $R=5$ Oh, $R=1$ Oh, $R=3$ Oh li uchta qarshilik $e=1,4$ V E.Yu.K li manba rasmida ko'rsatilgandek ulangan. R qarshilikdan strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishda $I=1A$ tok oqishi ushun A va B nuqtalar orasiga ulanishi kerak

MATEMATIKA fanidan

8 - 9 - sinf

1. K ning qanday qiymatlarida $(k-5)x^2-2kx+k-4=0$ tenglamaning bitta ildizi 1 dan kichik, ikkinchi ildizi 2 dan katta?

2. Tengsizlikni yeching: $|x^2-5|x|+4| \geq |2x^2-3|x|+1|$

3. $f(x)=\cos^2 x + \cos^2(\frac{\pi}{3}+x)$ funksiya konstanta (o'zgarmas) ligini isbotlang va uning qiymatini toping?

4. Tenglamalar sistemasini yeching: $ty^3=9x^2-27x+27$
 $tz^3=9y^2-27y+27$
 $tx^3=9z^2-27z+27$

5. Parallelogramning ikkita tomoni berilgan uchburchakning tomonlarida yotadi, bitta uchi esa uchburchakning uchinchi tomoniga tegishli. Qaysi shartlarda parallelogramning yuzi eng katta bo'ladi?

10 - 11 - sinf

1. $y=x^2$ parabolada absissalari $x=a$ va $x=3a$ aN0 ikkita nuqta olingan. Bu nuqtalardan kesuvchi o'tkazilgan. Parabolaning qaysi nuqtasi o'tkazilgan urinma bu kesuvchiga parallel bo'ladi?

bo'lgan tok manbaining E.Yu.K e aniqlansin. Tok manbalarining ichki qarshiligi nolga teng.

10-11-sinf

1. Massasi m bo'lgan va u tezlik bo'yicha harakat qilayotgan shar tinch turgan m massali shar bilan absolyut elastik to'qnashadi. Birinchi shar o'zining kinetik energiyasining qancha qismini ikkinchi sharga beradi?

2. Ikki to'g'ri yo'l o'zaro 60° burshak ostida kesishadi. Ular bo'yab ikki mashina chorraxadan u=60 km/s va u=80 km/s tezlik bilan uzoqlashmoqda. Agar mashinalar chorraxadan bir vaqtda o'tgan bo'lsalar, ular bir tomonga va qarama-qarshi tomonga harakatlangandagi nisbiy tezliklarini aniqlang?

3. Garmonik tebranishning boshlang'ish fazosi nolga teng. Nuqta muvozanat vaziyatidan 2,4 sm siljiganida nuqtaning tezligi 3 sm/s bo'ladi, 2,8 sm siljiganida esa tezligi 2 sm/s bo'ladi. Shu tebranishning davri va amplitudasini toping?

4. $q=40$ nKl nuqtaviy zaryad cheksiz o'tkazuvchan tekislikdan $d=30$ sm masofada joylashgan. Nuqtaviy zaryaddan 2d va tekislikdan 3d masofada yotgan nuqtadagi maydon kuchlanganligini toping?

5. $u=10$ Mm/s tezlik bilan to'g'ri chiziqli harakat qilayotgan elektronning traektoriyasidan $d=1$ nm masofadagi nuqtada hosil qilgan maksimal magnit maydon induksiyasini aniqlang?

2. Nuqtalar to'plami $\{(x;y)|x^2+y^2+2x+1\} \cap \{(x;y)|x-y+ai\}$ a ning qanday qiymatida faqat bitta nuqtaga ega. Shu nuqtani toping?

3. Quyidagi ketma-ketlikning 10274 nchi hadini toping?
1 1 2 1 2 3 1 2 3 4 1 2 3 4 5
1 2 1 3 2 1 4 3 2 1 5 4 3 2 1 ...

4. p ning qanday qiymatlarida $11p \cos x - 2 \sin x = 112 + 112p$ tenglama yechimlarga ega?

5. Piramidaning asosi teng yonli uchburchakdan iborat. Teng tomonlari b ga va ular orasidagi burchagi a ga teng. Piramidaning asosidagi ikkita teng tomonidan o'tuvchi yoqlari piramidaning asosiga perpendikulyar, uchinchi yog'i asos tekisligiga a burchak ostida og'gan. Piramidaga ichki chizilgan shar hajmini toping?

8-9-sinf I - bosqish

1. Jihozlarning jismoniy eskirishi 10 yildan keyin, ma'naviy eskirishi 5 yildan keyin boshlanadi. Amortizatsiyaning iqtisodiy asoslangan me'yorini taklif qilang?

2. Bank 10 mln. so'm miqdoridagi ssudani 3 yilga, 50% yillik bilan oddiy foiz shartlarida butun muddat davomida qarzlarni har oyda bir tekisda qaytarish talabi bilan berdi. Har oyda qanday miqdordagi summani qaytarishingiz lozim?

3. Tijorat bankida depozitlar miqdori 100 mln so'mga ortdi. Zahira me'yori 20% bo'lishi shart. Bu bank tizimi umuman olganda ko'pi bilan qanday summada qarz berishi mumkin?

4. Unumdorligi 2:3 nisbatda bo'lgan ikkita sehi trikotaj birgalikda 6 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqaradi. Har bir seh alohida necha so'mlik mahsulot tayyorlagan?

5. Agar xaridorning oylik o'rtacha daromadi 10 000

so'm bo'lganda bu tovarga individual talab hajmi 5 L 12 000 so'm, daromadda esa individual talab hajmi o'zgarishsiz bo'lsa, tovarning qanday kategoriyasi to'g'risida gap borayotganligini aniqlang?

10-11-sinf

1. Bank 1 mln so'm miqdoridagi ssudani A mijozga 2 oy muddatga,

keyin A mijozdan olingan pulni B mijozga 3 oyga berdi, B mijozdan olingan pulni S mijozga 5 oyga, va nihoyat S mijozdan olingan pulni D mijozga 2 oyga berdi. Barcha ssudalar 70% li yillik bilan berildi (oddiy tijorat foizlari usuli hisobi). Bankka D mijoz qanday summani qaytaradi va bank o'z operatsiyalarini qanday real foiz stavkalarida amalga oshirdi?

2. Ahmad va Akbar bo'z va go'sht ishlab chiqaradi. Ahmadning mehnat unumdorligi bo'z tayyorlashda Akbarga nisbatan 2 marta yuqori bo'lib, soatiga 2 m² ga teng. Akbar-taniqli chorvador. Uning bu sohada mehnat unumdorligi Ahmadga nisbatan 2 marta yuqori va soatiga 2 kg ni tashkil etadi?

a) Ahmad 30 m² bo'zni 70 kg go'shtga almashtirishni taklif qilayapti. Bunday almashuv Akbar uchun foydalimi?

b) Bunday almashuv nisbati o'zaro foydalimi?

3. Chakana savdogarlar ulgurji bozordan bir kilogrammini 400 so'm narxda 100 kg dan pomidor sotib olishdi. Kun davomida pomidorni ular kilogrammini 600 so'mdan sotishdi. Savdo kunining oxirida pomidor buzila boshladi. Har bir sotuvchida 30 kilogrammdan pomidor qoldi. Birinchi sotuvchi narxni tushira boshladi va 300 so'm narxda qolgan pomidorlarni sotdi. Ikkinchi sotuvchi, bu foydali emas deb, narxni 600 so'mda ushlab turdi va qolgan pomidorlar yaroqsiz bo'lib qoldi.

a) Ikkinchi sotuvchining xatosi nimadan iborat?
b) Agar savdo o'rni bir kunda 40 so'm, eng yaxshi holatda sotuvchining kunlik muqobil ish haqi 80 so'm bo'lsa, birinchi sotuvchining buxgalterlik va iqtisodiy foydasini toping. Birinchi sotuvchi oqilona harakat qildimi?

4. Narx 4 so'mdan 10 so'mgacha o'sganda taklif miqdori 120 dan 160 donagacha ortsa taklif elastikligi qanday bo'ladi?

5. Agar umumiy harajatlarning $TC=1600+100x+Q^2$ funksiyasi ma'lum va narx 300 ga teng bo'lsa, marjinal va o'rtacha harajatlarni funksiyasini toping, hamda raqobatdagi firmaning eng ko'p foydasini aniqlang.

8-9-sinf I - bosqish

1. 15 gramm mis va alyumioniy qotishmasiga xlorid kislotasi bilan ishlov berilganda, 5,6 gramm vodorod hosil bo'lsa, qotishmadagi alyuminiyning massa ulushini hisoblang.

2. Massasi 5,48 gramm bo'lgan natriy va alyuminiy amalgamasiga mo'ljallanmi NCl kislotasi ta'sir ettirilganda normal sharoitda o'lchangan 1,12 litr gaz ajralib chiqdi. Erimay qolgan modda filtrlandi va tortib ko'rilganda uning massasi 4,02 grammni tashkil etdi. Amalgama tartibini massa ulushlarda aniqlang.

3. Kalsiy, magniy va natriy orta fosfatlari aralashmasidagi fosforning miqdori massa jihatidan 20%ni tashkil etadi. Ushbu aralashmadagi metallar ionlarining ulushlarini toping.

4. 600 gramm 15%li vodorod xlorid eritmasini tayyorlash uchun kerak bo'ladigan 10%li va 30%li vodorod xlorid eritmalarining massalarini hisoblang.

5. Izopropil spirt kalyum permanganat (KmnO₄) ishtirokida oksidlangan, qanday birikma hosil bo'ladi? 4 Reaksiya tenglamalarini yozing.

10 - 11 - sinf

1. Azotning quyidagi birikmalari uchun struktura va elektron formulalar yozing:
 $N_2O, NO, N_2O_3, N_2O_4, N_2O_5, CH_3N, CH_3NH_2$

2. 2, 4, 6-Trimetilfinolning bromli suv bilan reaksiya tenglamasi va mexanizmini yozing?

3. «Metil-nushtirang» yoki geliyning deb ataluvchi indikatorning ishqoriy muhitda sariq, kislotali muhitda qizil rangga ega bo'lish sababini tushuntiring?

4. 25% li oleum va sun'iy 96% li sulfat kislotadan ($d=1,84$ g/sm³) qanday qilib 10% li oleum tayyorlash mumkin?

5. Stirolni kalyum bromidning suvdagi eritmasining emulsiyasi orqali xlor gazi o'tkazilganda qanday birikmalar hosil bo'lishi mumkin. Ularning hosil bo'lish mexanizmini tushuntiring. Reaksiyaning organik mahsulotlari qanday fazoviy tuzilishga ega bo'lishi mumkin?

Tengdoshlarning ijodi

BUXORAI SHARIFIM

Ona shahrim bag'ringda,
Kamol topdim men.
Tuproqli yo'llaringda,
Shodon chopdim men.

Yurtim, farzandingman,
Sening bir jisming -
Dunyoga tanitgum,
Buxoro isming.

Nafisa TO'RAYEVA,
Buxoro shahridagi
II-umumta'lim
maktabining 8 - «V» sinf
o'quvchisi.

Fozil Yo'ldosh nomli 2-umumiy o'rta ta'lim maktabimiz Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanida joylashgan. Erkin aka Mirzaqulov rahbarlik qiladigan maktabimizda 1761 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi. Ularga 126 nafar o'z kasbining fidoyisi bo'lmish ustoz va murabbiylar ta'lim-tarbiya berib kelishyapti.

O'quvchilarimiz maktablarini o'z uylaridek yaxshi ko'rishadi. Uni ozoda saqlashga, anjomlarini avaylab-asrashga intilishadi. Bilim maskanimiz bu yil ta'limi

SHOGIRDLAR YUTUG'I BIZNIKI HAMDIR

Xalq vazirligining «Hududi eng ko'rkam ta'lim muassasasi» ko'rik-tanlovida qatnashib, viloyat bo'yicha faxrli 1-o'rinni egallaganida ularning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi...

Nafaqat ozodagarchilikda, balki bilim bobida ham boshqa tengdoshlariga namuna bo'ladigan o'quvchilarimizdan 13 nafari 2004-2005 - o'quv yilida turli fan olimpiadalarining viloyat bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Shogirdlarning yutug'i ustozniki hamdir, deganlari rost ekan. 2004-2005 - o'quv yilida maktabimizdan uchirma bo'lgan bitiruvchilarimizning 33 nafari oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirganidan, 67 nafar o'quvchimiz pedagogik yo'nalishdagi oliygohlarda tahsil olayotganidan juda xursandmiz.

Qodir TOSHMURODOV,
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Ustozga so'z

Yoshlarimizni yetuk, komil, odob-axloqli insonlar qilib tarbiyalash azaldan ustozlarning vazifasi sanalgan. Men ham zimmasiga ana shunday mas'uliyatli vazifa yuklatilgan insonlardan biriman. Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 2-ixtisoslashgan

QALBLARGA ZIYO BERIB...

maktab-internati ta'lim-tarbiya berib o'quvchilariga kelyapman. Bilimga chanqoq, tirishqoq va zukko o'quvchilarimiz ko'pligi bois, maktabimizning nomi nafaqat viloyatda, balki respublikamizda ham o'z o'rni va salohiyatiga ega bo'lgan bilim maskanlari qatorida tilga olinadi.

Yaqinda ana shunday o'quvchilarimizdan bir nechasining bilimlarini charxlamoq niyatida Toshkentga, «O'yla, izla, top!» bellashuviga olib keldik. Ular bilag'on va topqirliklari bilan ishonchimizni oqlashdi.

Komila RUSTAMOVA,
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Kattalar,
o'tibor
bering!



ONA

Ona, yuzingizni ajin bosibdi,
Sochingizda oppoq tolalar bisyor.
Kechagina mitti o'g'ilchangizning,
Bugun o'zi tengi bolalari bor.

Ona, nega hayot tez o'tib ketdi,
Yoki bilmadikmi uning qadrini.
Nechun ko'zlaringiz xira tortibdi,
Aytinng ona, endi dilning dardini.

Esimda, bog'chaning darvozasidan,
Ko'rinib qolsangiz, shodon chopardik.
Ona, tunov kuni opamni nechun,
Boshqa bir bolaga berib yubordik?

Jahongir SAFAROV,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi
tumanidagi 4 - maktabning 6 - «A»
sinf o'quvchisi.

HUSAYNI XAFADEK KO'RINAR...

Kuz keldi - yaproqlar tilla rang,
Mevalar pishibdi rang-barang.
Qovun-o'tarvuzlar xilma-xil,
Tilimi til yorar bir qarang.
Charosni qo'linga olganda,
Husayni xafadek ko'rinar.
Noklarni shimirib yeganda,
Anjirning sharbati to'kilar.

UKAMGA

Tunda onam alla aytadi,
Ukaginam uxlamas zinhor.
Yulduzlar ham qo'shiq aytadi,
Onaginam o'tirar bedor.
Tabiat ham mizg'iydi horg'in,
Ukaginam, sen ham daming ol.
Orom olsin onam ham biroz,
Jajjiginam, endi uxlay qol...

Zilola JAMILOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali
tumanidagi 322-maktabning
5-«A» sinf o'quvchisi.

YAKKABOG'IM

Yoshing asrga tengdosh,
Faxrim ham g'ururimsan.
Ta'rifing so'zlasam gar,
Dildagi sururimsan.
Bag'rida ulg'aytirgan,
Suyanganim - tog'imsan.
Onadek mo'tabarsan,
Aziz Yakkabog'imsan.

Har go'shang, har maskaning
Aziz, qadrdon menga.
Biror mushkulot bo'lsa,
Suyanaman men senga.
Tuproq ko'changda o'tgan
Sho'x, bolalik chog'imsan,
Yurtlar ichra tanhosan,
Mening Yakkabog'imsan!

Gullola BOBOQULOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumanidagi
27 - maktabning
11 - sinf o'quvchisi.

PAQILDOQLAR YANGI YILNING ELCHISIMI?

«Chor-su» bozorining shirinliklar moddalar) sotib o'tirgan bir bolakayning tortdi: «Kep qoling, ob qoling, menda. Pochkasi 300 so'mdan. Hademay Bolakayning atrofiga razm soldim.

o'yinchoqlar sotayotgan faqat u emas ekan. Katta yoshli bolalarni imlab chaqirib, sumkalaridan yashirincha olib Bunday o'yinchoqlarni bexosdan paqillatib, kattalarni bolakaylarni koyib beramiz-u, ammo ularni chetdar kirib kelishiga, bozorlarda yashirincha sotilishiga yo'l qo'yib

Boychechag-u chuchmomalar bahorning darakchisi bo'lgani kabi ham yangi yilning elchisi bo'lishga ulgurgan bo'lsa?!

rastasidan chiqaverishda paqildoqlar (piratexnik baland ovozda) chaqirig'irdiqqatimni paqildoqlarning «dodasi»

yangi yil keladi...» Bunday ayollar ham berishyapti.

cho'chitib yuborgan noqonuniy ravishda beramiz.

nahotki paqildoqlar

Dilfuza XOLMATOVA,
O'zMU 2-kurs talabasi.



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Navbatdagi jumalarning birida yo'lga chiqdim-u falokat ro'y berdi. Poyezd bir kambag'alning sigirini bosib ketdi. Bu ishni hujjatlashtirib, sigir egasini jarimaga tortguncha (bechora ham sigiridan ajradi, ham jarimaga tushdi) bir soatdan mo'l vaqt o'tib ketdi. Shomni vagonda o'qidim. Poyezd oxirgi bekatga yetib kelganida, xufton ham kirib qolgan edi. Qorong'ulik faqatgina mening yuragimga cho'kkandek bo'ldi. Stansiaga tushdim-u yon-verimga alanglab o'zimga hamroh qidirib qoldim. Zora yozuvchi do'stlarimdan birortasi adashib chiqib qolishgan bo'lsa. Bugun shaharda kun judayam dim bo'ldi-ku. Men u yoq bu yoqqa qaragunimcha bog'hovlining yaqinrog'iga tashlab o'tib ketadigan avtobus ham liq to'lib, yarimtayam joy qolmabdi. Eshigini amal-taqal bilan yopib, jo'navordi. Men bundan yomon fol oldim. Poyezdning kechikishi, avtobusga sig'may qolishim... Qandaydir ko'ngilsizliklardan darak berayotganga o'xshardi. Tavakkal ko'chaning chekkasidan keta boshladim. Ko'chaning o'ng tarafi baland tog'. Ba'zan omonat turgan toshlari dumalab, yo'lning o'rtasigacha tushadi. Tog'ning usti qalin butazor. Vahimali qorayib turibdi. Osmonda yulduzlar... Lekin toqqa tushgan qorong'ulikni yoritishga ojizlik qilib, zaifgina miltirashadi. Yo'lning chap tomonida daryo. Shovqinlamay jimgina oqadi. Daryoning narigi betida esa sansonosiz chiroqlar, bamisoli shahar. Chiroqlar suvda shunday akslanadilarki, go'yo daryoning tagidayam shahar bordek. Ular qo'l yetmas joyda bo'lsa-da, bari bir yurakka dalda. Ichim yorishib ketadi. Bunday paytlarda nur Allohning sirli bir mo'jizasi ekanligiga shak-shubha qilmayman. Va bu mo'jizaning o'zimcha ta'rifiniyam keltirmoqchi bo'laman! Ammo uddasidan chiqolmayman. Axir Allohning mo'jizalarini ta'riflab bo'ladimi?! Ular qaysi ta'rifga siqqan? Butun dengiz suvlari siyohga, jamiyki daraxtlar qalamga aylanganda ham Yaratganning mo'jizalarini ta'riflab adoq qilib bo'ladimi. Bu haqda Yaratganning o'zi Qur'oni Karimning Nur surasi o'ttiz beshinchi oyatida «Alloh osmonlar va yerning nuridir» deb aytib qo'yibdi.

Shularni o'ylab, poyi-piyoda, undamunda o'tib qolgan mashinalarning chirog'i yorug'ida bog'hovli etaklariga yetib oldim. Undan u yog'iga yurishga nimagadir oyog'im tortmay qoldi. Bog'hovlidagi daraxtlar teppada xo'mrayib turgan tog' bilan birlashib, zimiston bo'lib ketgan, qadam qo'ygan odamni yutaman derdi. Qani endi daryoning narigi qirg'og'idagi minglab chiroqlarning jilla qursa bittasigina dala-bog'ning o'rtasida yiltirab tursa?! Nima azob, deb o'zimni o'zim koyiymen. Qaysi ahmoq yuz chaqirim joyga kelib, yer ochadi-yu, uy quradi? Shuncha odam siqqan shaharga sen sig'maysanmi? Sig'asan! Lokin bu yerdayam yana bitta imkoniyat topilib qoldi-da. Shunga nafsing hakalak otdi, tinching buzuldi. Seni bu kimsasiz joylarda sarson-u sargardon qilib qo'ygan shu nafsing emasmi? Ey, nafs bandasi!

Bog'imga olib boradigan ikkita yo'l bor edi. Biri qabristonning o'rtasidan o'tadigan asfalt ko'cha, u ikki baravar uzoq, ikkinchisi yaqingina so'qmog'u, ammo u jinlar uya qurgan o'sha

yong'oqning tagidan o'tadi. Jinlarni

Oqtosh haydab chiqarganiga o'zimni qanchalar ishontirmay, baribir oyog'im tortmay turardim. Men qaysi yo'ldan yursamikin deb anchadan beri bir joyda turib qolganimni payqab qoldim. Bu ahvolda yana qancha turish mumkin? Birdan miyamga uchinchi «yo'l» kelib qoldi. Uni hech ikkilanmay bajo keltirdim. Bu «yo'l» sal bo'lsayam dadillashib olishim uchun ham kerak edi. Bunday paytda shunchaki xirgoyi ham dalda beradi odamga. Xuddi yoningda kimdir borday. Yo'q, men hirgoyi qilib o'tirmadim. Hov birdagidek shunday hushtak chaldimki! Naq jim-jit tog'lar orasi zirillab ketgandek bo'ldi. Chaldim-u,

ko'zimni chirt yumib, quloq sola boshladim. Zora mening mehribon, sadoqatli itim eshitib qolsa. U o'sha kundan beri hushtagimni tanib qolgan. Ana, uzoqdan shatir-shutur ovozlar kela boshladi. Oh, jonivor, jonivorim eshitdi. O'qdek uchib kelyapti o'ziyam. Yuragimdagi vahima birdan chekinib, lablarim quvonchdan yoyildi.


Shu turishda Oqtoshni erkalab, silab-siypab qo'yishgayam rozi edim. Yo'q, u har doimgidek mendan sal narida yerga tappa yotdi-da «keldingmi?» degandek guvrandi. Ko'zlari uchqun sohib yiltiradi. Oppoq junlari g'ira-shira ko'zga tashlandi. Uni tusmol olib ergashdim. Ketyapman-u iymonim zaifligidan qiynalibmi, uyalibmi, Yaratganga istig'for aytaman. Axir hamma najot Allohdan-ku. Bu bir tilsiz it bo'lsa... Yolg'izning yori Xudo deyishadi. Shunday bo'lgach, Allohning hifzi-himoyasida turib, yana nimadan ham qo'rqadi odam! Bir istig'fordan, ming istig'for aytib boryapman-u, «amma»dan yodlaganim ushbu oyat yodimga tushadi: «Robbissamavati val arzi va ma baynahumar rohman...»-Alloh osmonlar, yer va ularning orasidagi barcha narsalarning tarbiyachisi, Rohmanidir...» Barcha narsalar qatoriga shu tilsiz jonivor ham kiradi-ku. Balki Allohim ayni damda shu tilsiz jonivori bilan meni quvvat-

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV.



lantirayotgandir. Vujudimni qoplab olgan qo'rqov va taxlikani nari surayotgandir... Nima qilishni, qayerdan, qanday madad yetkazishni Yaratganning o'zigina biladi. Aslida aqlli, farosatli, ziyrak jonivorning osmondan tushgandek bog'imda paydo bo'lib qolishining o'ziyam bir mo'jiza emasmi?!

RO'MOLCHA XAT

Men kunma-kun Oqtoshni kashf etib borardim. U ko'rinmas ip bilan bog'lab qo'yilgandek mendan ajramas edi. Biror yoqqa otlanib qolsam, mendan oldin yo'lga tushardi. Men tappi terib kelish, tog'dan o'tin olib tushish, suv ochish uchun boshqa-boshqa so'qmoqlardan borardim. Oqtosh hovlidan chiqmasimdan, o'sha so'qmoqda meni kutib turardi. Tavba, shu yoqqa yurishimni qayerdan biladi, deb hayron bo'lardim. Garga tushinishi bir sari edi-yu, odamning fikrini uqib olishi ham bir sari edi. Ha, meni benihoya hayratga solardi. Keyinchalik bu sirning tagiga yetdim. Oqtosh qo'limdagi narsadan fol olar ekan. Yelkamga ketmon tashlab chiqsam quloq boshiga, qop ko'tarib olsam tappiga, qo'limda arqon bo'lsa o'tinga borishimni sezarkan.

Bir kuni qiziq bo'ldi. Boymurod aka bilan toqqa o'tinga chiqdik. Boymurod aka

eshakda, men piyoda.

Boymurod akaning qiziq-qiziq gaplariga og'ib, ancha-muncha o'tin qilib qo'yibman. Qoldirgani ko'zim qiymadi. Yovvoyi qizil olichalar qurigandan keyin ham zil-zambil bo'larkan. Orqaga qaytdik. So'qmoq, goh pastga, goh qirga o'rlaydi. Pastlikka duch kelsam o'tinni dumalatib yuboraman-u, ammo u yerdan olib chiqquncha tinkam qurib qoladi. Eshak jonivorniyam tumshug'i yerga tegay-tegay deb boryapti. Oqtosh atrofimizda girdikapalak. Birdan xayolimga bir fikr kelib qoldi.

– Boymurod aka, - dedim. Boymurod akaning har doimgidek do'ppisi qo'lda, yarim kal boshini qashlaganicha menga qaradi. – Oqtoshni avliyo devdingizmi?

U kishi «shunday» degandek jilmaydi. – Hozir sinab ko'ramiz. Oqtosh, bu yoqqa ke, - deyman uni o'zimga imlab.

Oqtosh yonimga keladi-yu, fikrimni uqqandek nafas olmay, men tomonga bo'ynini cho'zdi. Ro'molchamni uning bo'yniga bog'layman-da:

– Bor jonivor, kennoyingni yordamga boshlab ke, - deb uyimiz tarafni ko'rsatdim.

Oqtosh topshiriqni olib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Xuddi kinolardagidek bo'ldimi, - deya Boymurod akaga qarab kulaman. – Qog'oz-qalam bo'lganda yanayam o'rniga tushardi-da, bu «ro'molchahatimiz»ni kennoyisi tushmagur «o'qiy» olarmikan?!

– Nima qilamiz, kennoyini kutamizmi? - so'raydi Boymurod aka. Nimagadir u kishi Oqtoshning odam boshlab kelishiga ishonardi. Men esam yo'q.

– Keling, chiqmagan oftobga isinmaylik, qimirlagan qir oshar, - deb inqillab-sinqillab o'tinni yelkamga olaman, - qir oshib turaylik...

Bir jarlikka tushib u yerdagi manzarani ko'rib, hayron qoldim. Bu yerga bahor endi yetib kelgandek edi. O'tlar barra, ko'm-ko'k. Qarab turib odamning ko'zi yashnaydi. Eshak jonivor yutoqib, o'zini ko'kka urdi. Rohatbaxsh bir salqinlik kishi vujudini erkalardi. Ko'zlarimni yumib, jarlik soyasiga cho'zilaman.

– Mulla, suvga qalaysiz? - so'raydi Boymurod aka.

– Tilizzi qarg'a cho'qisin, - deyman yutib.

– Anakka,-deb kuladi Boymurod aka.

– Rost-da, yo'q narsani nima qilaisiz esga solib, o'zi shundog'am to'kilib turibman.

(Davomi bor.)

Qizilqum Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan ulkan cho'l bo'lib, uning bir qismi O'zbekiston, bir qismi Qozog'istonda joylashgan. Qadim o'tmishda ushbu cho'l o'rnida dengiz bo'lgan. Maydoni 300 ming. km² bo'lgan cho'lda qizg'ish, kul rang, sarg'ish qumlar bor. Cho'lda shamollar ta'sirida ko'chib yuruvchi barxanlar mavjud.

Qizilqumda havo harorati yoz oylarida 45 darajadan yuqori ko'tariladi, qish oylarida minus 30

darajadan pasayishi mumkin. Cho'lda yog'ingarchilik juda oz bo'lib, asosan mart-aprelda eng ko'p namlik seziladi. Qizilqumda yer osti bo'lib, ulardan quvurlar orqali foydalaniladi. Qizilqum o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosiga ega. Cho'l sharoitida namlik juda oz bo'lgani uchun, bu yerdagi noqulay muhitga moslashgan o'simliklarga o'sa oladi. Bular qora va oq saksovu, shuvoq, iloq, kovul, moh, qandil, qum akasiyasi va boshqalar. Qizilqumda hayvonot dunyosidan echkamar, kalta-kesak, yumronqoziq, tulki, cho'l mushugi, jayron, olako'zan,

tipratikan, qushlardan cho'l qarg'asi, bulduruq, tuvoloq, burgut, kaklik, boyqushni uchratish mumkin. Hasharotlardan chumoli, kalamush, chayon, qoraqurt kabilar mavjud. Qizilqumning xalq xo'jaligida ahamiyati katta. Bepoyon yaylovlardan chorva mollarini boqishda foydalaniladi. O'zbekistonning faxri bo'lgan Muruntov oltin koni ham shu cho'lda joylashgan.

Hozirgacha bir qancha yirik rudali va norudali foydali qazilmalarning konlari topilgan. Bu yerdan qora va qizil marmar konlari ishlab turganligi asosan bozorni tayyor mahsulot bilan ta'minlaydi. Kelajakda cho'l bag'rida yangi-yangi sanoat korxonalarini quriladi. Shaharlar bunyod etiladi. Quyosh nuridan foydalanib ekologik toza elektr energiyalar hosil qilinib, xalq xo'jaligida foydalaniladi. Yangi temir yo'llar, avtomobil yo'llari barpo qilinadi.

Qizilqum Ona Vatanimizning go'zal go'shalaridan biriga aylanishiga ishonamiz.

Anvar MADRAHIMOV.

QIZILQUM

Bu turfa olam

Dadam yigit kishiga qirq hunar ham oz, degan maqolga jiddiy qarardilar. Bizni ham har taraflama mukammal inson bo'lishimizni istardilar. Esimda, otajonim "Nachalnik pochta" bo'lgan paytlarigacha - bosh kassir, magazinchi, bufetchi, bosh oshpaz va hatto uy soladigan quruvchi ham bo'lib ishlagandilar. Shuningdek, bola-chaqani bekamu ko'st boqish ilinjida hatto oldindan kelishilgan narxda kimlarningdir to'ylarida qo'shiqlar aytib xizmat ham qilganlar. Agar, mabodo yo'lingiz Buxoro taraflarga tushib, Baliqchi Nazar akani so'rasangiz, darrov tanishadi. Chunki otajonim baliqchilik ham qilganlar-da. Otam o'z ishlari

90 or 80

bilan band-u, biz ham ular nima ish bilan shug'ullanayaptilar, bilish, vazifalarini his qilish bilan ovora edik. Balki shuning uchun biz-bolalar kattalar qadriga yetib, ota-onamizning halol mehnatlarini oqlab, jamiyatimizga naf keltiradigan insonlar bo'lib yetishgandirmiz?..

Bir kuni otam bir dunyo kvitansiya (obuna varaqasi) bilan keldilar va odamlarni gazeta va jurnallarga obuna qilish ishlari



bilan band bo'ldilar. So'ng bizni ham bekor o'tirmasligimiz uchun ishga solib yubordilar: - "Bolalar, qani gazetaga obuna bo'lganlarni mana bu ro'yxatga qarab kvitansiya to'ldiringlar..."

Shu kuni juda uzo-o-q vaqt kvitansiya to'ldirish bilan band bo'ldik. Men o'yinqaroq emasmanmi, nazarimda oxiri ko'rinmaydigan bu ishdan juda zerika boshladim va iloji boricha ismlarni qisqartirib yozishga

kirishdim. Xullas, navbat bir mijozga keldi. Juda tez va oson yozib qo'ydim:

90 ov - 80.

O'sha TO'QSONOV SAKSON bolalar gazetasiga obuna bo'lgan ekan... O'sha xonadonga varaqa borganda 90 ov 80 kim ekan deb rosa oilaviy kulib, yil bo'yi shu kulgular ostida pochta amakini kutib olishgan ekan. Xullas, qadrdon gazeta-mizning obuna ishlarida ko'maklashganimdan faxrlanaman. «Tong yulduzi» - hammamizning gazetamiz.

*Qursiya ESONOVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan artist.*

HAR BOLAGA IKKITA «TONG YULDUZI»



Men poytaxtimizdagi 182-maktabning 5-«J» sinfida tahsil olaman. Hamma joyda bo'lgani kabi bizning maktabimizda ham turli nashrlariga obuna jarayoni qizg'in davom etyapti. Biz sinfimiz bilan 2006- yil uchun sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik. Yangi yildan boshlab sinf burchagimizdan nafaqat badiiy kitoblar, balki sevimli gazetamizning har bir soni ham o'rin ola boshlaydi.

Sizlarni bilmadim-u, ammo biz sinf rahbarimiz boshchiligida bu gazetaning har biri sonini zo'r qiziqish bilan o'qib boramiz. Uning rang-barang sahifalari, zamonaviy dizayni bizga juda yoqadi. Sinfidan tashqari darslarimizda tengdoshlarimiz hayotiga oid maqola va xabarlarini, she'r va hikoyalarni o'qib, muhokama qilamiz. Unda chop etilayotgan krossvordlar-u boshqotirmalar katta tanaffusimizning maroqli va mazmunli o'tishiga xizmat qiladi.

Xullas, «Tong yulduzi»ni o'qib, bilimimiz va dunyoqarashimiz kengayib borayotganini his qilyapmiz. Sizga ham aziz tengdoshlarim, mana shu gazetaga obuna bo'lishni maslahat bergan bo'lardim. Hecham afsuslanmaysiz. Har biringiz yana ikkitadan o'rtog'ingizni ham bu gazetaga yozilishiga hissa qo'shsangiz, o'z gazetamiz ko'proq nusxada chiqardi. Gazeta qancha ko'p chiqsa, davlat tuzumi, tinchlikparvar g'oyasi, yurt rahbarlari talab va istaklarini shuncha ko'p bola o'qib o'rganardi-da.

*Oysha SHUKUROVA,
Toshkentdagi 182 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.*

USTOZLARNING ENG ZO'R I BIZDA

Tahririyatimizda taniqli sportchi bilan bo'ladigan uchrashuvga shahrimizdagi maktablardan juda ko'plab o'quvchilar kelishdi. Yig'ilganlar orasida yuqori sinf o'quvchilari bilan bir qatorda quyi sinf kichkintoylari ham bor edi. Uchrashuvdan bir olam taassurotlar bilan chiqqan bolajonlarni suhbatga tortdik. O'qishlari, qiziqishlari, sevimli mashg'ulotlari haqida so'radik:

- O'qishlarimiz juda yaxshi,-deya bir ovozdan chuyillab ketishdi ular.

- E-e, to'xtanglar, to'xtanglar, bunaqasi ketmaydi, bittadan gapiringlar,-dedik ularni tinchlantirib.

- Men gapirsam maylimi?-dedi o'zini G'ayrat Hamdamov deb tanishtirgan bir bolakay baland ovozda. - Bizga maktabdagi o'qituvchilarning eng zo'ri nasib qilgan.

Ustozimiz Manzura opa Saidjonovani aytyapman-da, to'g'rimi bolalar? U kishini xuddi o'z onamizdek yaxshi ko'ramiz. Darslarni bizga juda yaxshi tushuntiradilar. Shuning uchun ham a'lochilarimiz ko'p. Darsdan bo'sh vaqtlarimizni turli to'garaklarda o'tkazishimiz lozimligini ham ustozimiz aytdilar. Shuning uchun ham hammamiz biron bir to'garakka a'zomiz. Ingliz tili, rus tili, informatika to'garaklariga qatnaymiz. Qizlarimiz esa raqs to'garagida raqs tushishni o'rganishadi. Oramizda sportchilar ham yo'q emas. Men, do'stim Zoir va sinfdoshim Mahbuba maktabimiz qoshidagi karate to'garagiga a'zo bo'lganmiz.

-Sportga, til o'rganishga qiziqarkansizlar, kitob, gazeta va

jurnallar o'qishni ham yaxshi ko'rasizlarmi?-so'raymiz ulardan.

- Albatta,-deya suhbatimizga qo'shildi Mahbuba. - Har yili «G'uncha» jurnaliga obuna bo'lardik. Bu yil esa sinfimizdagi 40 nafar o'quvchining bari «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik. Bu gazetadagi «Ukamning tili shirin», «O'zimiz ertak yozamiz», «Ukam

« bog'chaga boradi» kabi ruknlar ostida berilayotgan sahifalarni darsdan bo'sh vaqtlarimizda birgalikda o'qiyamiz. Ayrim sinflar butun sinfi uchun bir donagina gazetaga obuna bo'lishadi. Kutubxonachi opa uni o'z vaqtida keltirib bersa yaxshi-ya, keltirmasa, gazeta kelmadi, deya nolib yuraverishadi. Biz esa har birimiz uyimizga obuna bo'ldik. O'qib bo'lgach, gazetalarni to'plam qilib tikib qo'yamiz. Chunki uni uka va singillarimiz ham o'qishadi-da. Yana, o'qish darslarida inshomi, bayonmi yozadigan bo'lsak, gazetadagi ma'lumotlardan bemalol foydalana olamiz...

Poytaxtimizdagi 269 - bog'cha maktabning rus tili, ingliz tili va informatikaga yo'naltirilgan 3 - «B» sinfida tahsil olayotgan bu bolakaylarning o'zlari yosh bo'la turib kattalardek fikrlashlarini qarang. Ulardan ibrat olsa arziydi-a, siz nima deysiz?

NARGIZA suhbatlashdi.

**TONG
yulduzi**

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
BotirUBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 13558
Buyurtma N: J 1797

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin
SHAYADGAROV.
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA.

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10
144-63-08

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45